ABU HAFS NASAFIY TAFSIRIDA QUR'ON VA UNING INSON KAMOLOTI HAMDA JAMIYAT BARQARORLIGIGA TA'SIRI

КОРАН В ТОЛКОВАНИИ АБУ ХАФСА АН-НАСАФИ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ДУХОВНОЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЧЕЛОВЕКА И СТАБИЛЬНОСТЬ ОБЩЕСТВА

THE QUR'AN IN ABU HAFS AL-NASAFI'S TAFSIR AND ITS IMPACT ON HUMAN MORAL DEVELOPMENT AND SOCIAL STABILITY

ABDURASHIDOV Ahrorxon Dadaxon o'g'li
INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF UZBEKISTAN
Doctoral Researcher (PhD Candidate)
Department of Social Sciences and Law
E-mail: ahrorxonabdurashidov97@gmail.com
11, A.Kadiri, Tashkent, 100011, Uzbekistan

DOI: 10.47980/IIAU/2026/3/3

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Movarounnahr tafsir maktabining yirik namoyandalaridan biri bo'lgan Abu Hafs Umar ibn Muhammad an-Nasafiyning merosida Qur'oni karimning inson kamoloti hamda jamiyat barqarorligiga ta'siri masalasi ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi Abu Hafs Nasafiy tafsirida Qur'on oyatlarining insonni ma'naviy, axloqiy va ruhiy jihatdan tarbiyalashdagi o'rni hamda jamiyatda ijtimoiy adolat, hamjihatlik va barqarorlikni ta'minlashga doir qarashlarini aniqlashdan iborat. Shuningdek, maqolada mufassirning oyatlarni sharhlash metodologiyasi, uning aqidaviy va axloqiy qarashlari, Qur'on ta'limotlarini inson hayoti bilan bog'lash uslubi hamda tafsirga oid merosining ilmiy ahamiyati yoritilgan.*

Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy, tahliliy-sintetik, tavsifiy, matnshunoslik va germenevtik metodlardan foydalanilgan. Abu Hafs Nasafiyning "At-Taysir fit-tafsir" asarida keltirilgan oyatlar tahlili asosida uning inson kamoloti, axloqiy tarbiya, sabr, shukr, taqvo, adolat va ijtimoiy mas'uliyat haqidagi qarashlari o'rganilgan. Shuningdek, Qur'onda zikr qilingan tarixiy qavmlar misolida jamiyatlarning yuksalishi va tanazzuliga sabab bo'luvchi omillar tafsiriy manbalar asosida tahlil qilingan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Abu Hafs Nasafiy tafsirida Qur'on insonni komillikka yetaklovchi asosiy ma'naviy manba sifatida talqin qilingan. Mufassirga ko'ra, insonning haqiqiy kamoloti iymon va ezgu amallar uyg'unligi orqali shakllanadi. Adolat, halollik, mas'uliyat va taqvo jamiyat barqarorligini ta'minlovchi muhim omillar sifatida baholanadi. Nasafiy tarixiy voqealar va qavmlar misolida ma'naviy qadriyatlardan uzoqlashish jamiyat tanazzuliga olib kelishini asoslaydi. Xulosa qilib aytganda, alloma tafsirida Qur'on inson tarbiyasi, ma'naviy yuksalish va jamiyat taraqqiyotining muhim manbai sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur tadqiqot Abu Hafs Nasafiy tafsirining ilmiy ahamiyatini yoritish bilan birga, uning zamonaviy ijtimoiy-ma'naviy jarayonlar uchun ham dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *Abu Hafs Nasafiy, tafsir, Qur'on, inson kamoloti, jamiyat barqarorligi, ma'naviy tarbiya, axloq, adolat, Movarounnahr tafsir maktabi, ijtimoiy mas'uliyat.*

Abstract. *This article presents a scholarly analysis of the impact of the Holy Qur'an on human moral development and social stability in the exegetical heritage of Abu Hafs Umar ibn Muhammad al-Nasafi, one of the prominent representatives of the Transoxanian school of Qur'anic exegesis. The main objective of the study is to examine al-Nasafi's views on the role of Qur'anic verses in the spiritual, moral, and psychological development of individuals, as well as to reveal his approaches to promoting social justice, solidarity, and stability within society. The article also explores the scholar's methodology of Qur'anic interpretation, his theological and ethical perspectives, and the significance of his scholarly legacy in the Islamic intellectual tradition.*

The research employs historical-comparative, analytical-synthetic, descriptive, textual, and hermeneutic methods. Through an analysis of Qur'anic verses interpreted in al-Nasafi's work At-Taysir fi al-Tafsir, the study investigates his views on human perfection, moral education, patience, gratitude, piety, justice, and social responsibility. Furthermore, the factors contributing to the rise and decline of societies, as illustrated through the historical communities mentioned in the Qur'an, are analyzed on the basis of exegetical sources.

The findings of the study demonstrate that, in Abu Hafs al-Nasafi's tafsīr, the Qur'an is interpreted as a fundamental spiritual source that guides human beings toward moral and personal perfection. According to the scholar, true human perfection is achieved through the harmonious integration of faith and righteous deeds. Justice, honesty, responsibility, and piety are identified as essential foundations of a stable society. Furthermore, his interpretation of historical examples shows that abandoning moral values ultimately leads to social decline. In conclusion, al-Nasafi's tafsir presents the Qur'an as a comprehensive source of moral education, spiritual growth, and social development. The study confirms the scholarly significance of his exegetical heritage and highlights its continued relevance to contemporary social and spiritual challenges.

Keywords*: Abu Hafs al-Nasafi, Tafsir, Qur'an, human moral development, social stability, spiritual education, ethics, justice, Transoxanian school of exegesis, social responsibility.*

Аннотация. *В данной статье проводится научный анализ влияния Священного Корана на совершенствование человека и стабильность общества в наследии Абу Хафса Умара ибн Мухаммада ан-Насафи – одного из видных представителей школы тафсира Мавераннахра. Основная цель исследования – выявить взгляды Абу Хафса ан-Насафи на роль коранических аятов в духовно-нравственном воспитании человека и формировании его внутреннего мира, а также на обеспечение социальной справедливости, общественного согласия и стабильности. Рассмотрены методология толкования аятов, вероучительные и этические взгляды*

толкователя, особенности соотнесения коранического учения с жизнью человека и научное значение его экзегетического наследия.

В исследовании использованы сравнительно-исторический, описательный, текстологический и герменевтический методы, а также методы анализа и синтеза. На основе анализа аятов, приведённых в труде Абу Хафса ан-Насафи «ат-Тайсир фи-т-тафсир», изучены его взгляды на совершенствование человека, нравственное воспитание, терпение, благодарность, богобоязненность, справедливость и социальную ответственность. С опорой на тафсирные источники также проанализированы факторы расцвета и упадка обществ на примере народов прошлого, упоминаемых в Коране.

Результаты исследования показывают, что в тафсире Абу Хафса ан-Насафи Коран трактуется как основной духовный источник, направляющий человека к совершенству. Согласно взглядам толкователя, подлинное совершенство человека достигается через единство веры и благих деяний. Справедливость, честность, ответственность и богобоязненность рассматриваются им как важные факторы обеспечения стабильности общества. На примере исторических событий и народов прошлого ан-Насафи обосновывает положение о том, что отступление от духовных ценностей ведёт к общественному упадку. Таким образом, в его тафсире Коран предстаёт как важный источник воспитания человека, духовного совершенствования и развития общества. Исследование раскрывает научную значимость тафсира Абу Хафса ан-Насафи и показывает его актуальность в контексте современных социальных и духовных процессов.

Ключевые слова: *Абу Хафс ан-Насафи, тафсир, Коран, совершенствование человека, стабильность общества, духовное воспитание, нравственность, справедливость, школа тафсира Мавераннахра, социальная ответственность.*

KIRISH

Islom tafsir ilmi tarixida Qur'oni karimni sharhlash an'analari turli davrlarda shakllanib, har bir mufassir o'z zamonasining ilmiy, ijtimoiy va ma'naviy ehtiyojlaridan kelib chiqib oyatlarni talqin qilgan. Ana shunday yirik ilmiy maktablardan biri Movarounnahr tafsir maktabi bo'lib, bu hudud islom ilm-fani taraqqiyotida muhim markaz sifatida e'tirof etilgan. Ushbu maktab vakillaridan biri Abu Hafs Umar ibn Muhammad an-Nasafiy o'zining tafsiriy qarashlari bilan Qur'onni inson hayoti va jamiyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq holda izohlashga katta e'tibor qaratgan olim sifatida ajralib turadi.

Abu Hafs Nasafiy tafsiriy merosida Qur'on faqatgina aqidaviy yoki fiqhiy masalalarni yorituvchi manba emas, balki insonni ma'naviy jihatdan kamol toptiruvchi, uning axloqini shakllantiruvchi va jamiyatda adolat hamda barqarorlikni qaror toptiruvchi ilohiy yo'l-yo'riq sifatida talqin qilinadi. Ayniqsa, uning oyatlarni sharhlashdagi yondashuvi inson ruhiyati, axloqiy tarbiya va ijtimoiy munosabatlarni bir butun tizim sifatida ko'rib chiqishi bilan ilmiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi bugungi globallashuv jarayonida jamiyatlarda kuzatilayotgan ma'naviy inqiroz, axloqiy qadriyatlarning zaiflashuvi, ijtimoiy adolatsizlik va beqarorlik muammolari bilan bevosita bog'liqdir. Zamonaviy sharoitda inson kamoloti va jamiyat barqarorligini ta'minlashda ma'naviy manbalarning, xususan, Qur'oni karim ta'limotlarining o'rni yanada kuchaymoqda. Shu jihatdan Abu Hafs Nasafiy tafsirini o'rganish nafaqat tarixiy-ilmiy, balki amaliy-ma'naviy jihatdan ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – Abu Hafs Nasafiy tafsirida Qur'onning inson kamolotiga ta'siri hamda jamiyat barqarorligini ta'minlashdagi o'rnini ilmiy asosda tahlil qilish, mufassirning oyatlarni sharhlashdagi metodologik yondashuvini aniqlash va uning qarashlarining zamonaviy ijtimoiy-ma'naviy jarayonlar bilan bog'liqligini yoritishdan iborat.

Ushbu maqsaddan kelib chiqib, tadqiqot oldida bir qator vazifalar turadi:

- Abu Hafs Nasafiy ilmiy merosining shakllanishi va tafsiriy yo'nalishini o'rganish;
- Qur'on oyatlarining inson kamolotiga doir sharhlarini tahlil qilish;
- jamiyat barqarorligi bilan bog'liq oyatlarning Nasafiy talqinini yoritish;
- mufassir yondashuvida axloqiy, ijtimoiy va ruhiy omillar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash;
- uning tafsiriy qarashlarining bugungi kundagi ilmiy-amaliy ahamiyatini baholash.

Shu bilan birga tadqiqotning asosiy muammosi shundan iboratki, Abu Hafs Nasafiy tafsirida Qur'on oyatlari inson kamoloti va jamiyat barqarorligiga qanday nazariy va amaliy mexanizmlar orqali ta'sir etadi, ushbu ta'sirning ilmiy asoslari nimalardan iborat va ularning zamonaviy jamiyat uchun qanday dolzarbligi mavjud? Mazkur savol Qur'on tafsirini faqat tarixiy talqin sifatida emas, balki ijtimoiy hayotga tatbiq etiladigan tizimli ma'naviy konsepsiya sifatida o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Maqolada Abu Hafs Nasafiy tafsiriy qarashlari asosida Qur'onning insonni ma'naviy kamolotga yetaklashi va jamiyatda barqarorlikni shakllantirishdagi o'rni kompleks yondashuvda tahlil qilinadi hamda uning ilmiy xulosalari zamonaviy ijtimoiy-ma'naviy jarayonlar bilan qiyosiy jihatdan yoritiladi.

ASOSIY QISM

Abu Hafs Umar ibn Muhammad ibn Ahmad an-Nasafiy (أبو حفص عمر بن محمد بن أحمد النسفي)

Movarounnahrda yetishib chiqqan yirik mufassir, faqih, muhaddis va mutakallim olimlardan biridir. U hijriy V asrning ikkinchi yarmida Nasaf (hozirgi Qashqadaryo viloyatidagi Qarshi shahri atrofi) da tavallud topgan. Nasaf shahri o‘sha davrda ilm-fan markazlaridan biri bo‘lib, ko‘plab muhaddis va faqihlarni yetishtirgan.

Nasafiy dastlabki ta’limni o‘z yurtida olgan. Keyinchalik Buxoro, Samarqand va Movarounnahrning boshqa ilm markazlarida tahsil olib, hadis, tafsir, fiqh, kalom, lug‘at va adabiyot ilmlarini mukammal egallagan. U hanafiy mazhabining yetuk namoyandalaridan biri sifatida tanilgan. Alloma o‘z davrining mashhur olimlaridan saboq olib, qisqa vaqt ichida ilm ahllari orasida katta shuhrat qozongan. U nafaqat diniy ilmlar, balki tarix, nasab ilmi va adabiyot sohalarida ham chuqur bilimga ega edi. Nasafiy ko‘plab shogirdlar yetishtirib, Movarounnahr ilmiy muhitining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan (Rahimjonov D., 2010:22).

Abu Hafs Nasafiy 537-hijriy (1142-milodiy) yilda Samarqandda vafot etgan. U musulmon olamida tafsir, hadis va fiqh ilmlariga qo‘shgan hissasi bilan yuksak ehtiromga sazovor bo‘lgan.Abu Hafs Nasafiy qalamiga mansub asarlar soni yuzdan ortiq ekani manbalarda qayd etiladi. U tafsir, hadis, fiqh, aqida, tarix va tabaqot ilmlariga oid ko‘plab asarlar yozgan (Muratov A., 2021:24).

“At-Taysir fit-tafsir” (التيسير في التفسير) - asari Nasafiyning eng mashhur tafsir asari hisoblanadi. Asarda Qur’oni karim oyatlari lug‘aviy, fiqhiy, aqidaviy va axloqiy jihatdan sharhlangan. Muallif sahoba va tobeinlarning rivoyatlaridan keng foydalangan hamda Qur’on oyatlarining tarbiyaviy ahamiyatiga alohida e’tibor qaratgan. Mazkur tafsirda Qur’on oyatlarining lug‘aviy tahlili, Asbob an-nuzul masalalari, Aqidaviy va fiqhiy hukmlar, Inson kamoloti va axloqiy tarbiya masalalari keng yoritilgan.

“Al-Qand fi zikri ulamoi Samarqand” (القند في ذكر علماء سمرقند) - Samarqand olimlari va muhaddislari tarjimai holiga bag‘ishlangan muhim tarixiy manba hisoblanadi. Ushbu asar Movarounnahr ilmiy muhitini o‘rganishda asosiy manbalardan biri sanaladi.

“Talabat at-talaba fi al-istilahat al-fiqhiyya” (طلبة الطلبة في الاصطلاحات الفقهية)- Hanafiy fiqhiga oid istilohlarning izohiga bag‘ishlangan asar. Kitob fiqhiy atamalar lug‘ati sifatida katta ahamiyatga ega.

“Al-Aqoid an-Nasafiyya” (العقائد النسفية) - Bu asar aslida Abu Hafs emas, balki keyingi davr olimi Najmuddin Umar an-Nasafiy (vaf. 537/1142) tomonidan yozilgan. Shu sababli ilmiy ishlarda Abu Hafs Nasafiy va Najmuddin Nasafiyni bir-biridan farqlash zarur. Abu Hafs Nasafiy asarlarida Qur’on va hadislarning inson tarbiyasi, ma’naviy kamolot, jamiyat barqarorligi va ijtimoiy adolatni ta’minlashdagi o‘rni chuqur tahlil qilingan. Ayniqsa “At-Taysir fit-tafsir” asari Qur’on tafsirchiligi tarixida muhim o‘rin tutadi. Ushbu asarda oyatlar faqat diniy hukmlar nuqtayi nazaridan emas, balki insonning ma’naviy va axloqiy kamoloti bilan bog‘liq holda ham sharhlangan (Rahimjonov D., 2010:22).

Shu bois Abu Hafs Nasafiy Movarounnahr tafsir maktabining yirik namoyandalaridan biri sifatida islom ilmlari tarixida alohida mavqega ega hisoblanadi. Uning ilmiy merosi bugungi kunda ham tafsirshunoslik, hadisshunoslik va islom ma’naviyati bo‘yicha tadqiqotlarda muhim manba sifatida foydalanilmoqda.

Islom manbalarida Qur’oni karimning ayrim suralari, xususan, “Havamim”[1] deb nomlanuvchi suralar alohida ma’naviy fazilatga ega ekani ta’kidlanadi. Bu haqda kelgan rivoyatlarda Qur’onning inson ruhiyatiga ta’siri, uning qalbni poklashdagi o‘rni hamda ma’naviy kamolotga yetaklovchi xususiyati badiiy va ramziy ifodalar orqali yoritilgan. Rivoyat mazmuniga ko‘ra, Payg‘ambar Muhammad (s.a.v) Qur’onni “mevasi bor daraxt”ga o‘xshatib, uning har bir qismi inson uchun ma’naviy foyda berishini bayon qilganlar. Ayniqsa, “Havamim” suralari Qur’onning eng serhosil va eng fayzli “mevasi” sifatida tasvirlanadi. Bu tashbeh Qur’on oyatlarining faqat o‘qish uchun emas, balki inson qalbini oziqlantiruvchi, uni ma’naviy yuksaltiruvchi manba ekanini bildiradi.

Ushbu suralarni “jannat bog‘lari”ga qiyoslash Qur’on tilovatining inson ruhiyatiga ta’sirini yanada chuqurroq ifodalaydi. Ya’ni Qur’onni o‘qigan inson ma’naviy jihatdan jannat muhitiga yaqinlashadi, uning qalbida xotirjamlik, poklik va ilohiy huzur paydo bo‘ladi. Bu esa Qur’onning inson kamolotidagi ruhiy-tarbiyaviy vazifasini yaqqol ko‘rsatadi. Rivoyatda keltirilgan yana bir o‘xshatish “Havamim suralari kiyimdagi nafis bezak kabidir” degan ifoda Qur’onning uslubiy va badiiy jihatdan mukammalligiga ishora qiladi. Bu o‘xshatish orqali Qur’on matnining nafaqat mazmuni, balki uning ifoda shakli ham yuksak estetik darajada ekani ta’kidlanadi. Demak, Qur’on insonni faqat ma’naviy emas, balki estetik tafakkur jihatidan ham tarbiyalaydi.

Abdulloh ibn Mas’ud (r.a) va Mujohid (r.a) kabi salaf olimlarning so‘zlari ham Qur’onning aynan ushbu suralarini o‘qish inson qalbiga chuqur ta’sir qilishini tasdiqlaydi. Ibn Mas’udning “go‘yo yumshoq va go‘zal bog‘larda yurgandek bo‘laman” degan iborasi Qur’on tilovatining ruhiy zavq va ma’naviy osoyishtalik manbai ekanini ifodalaydi. Mujohid esa bu suralarni

[1] Qur’onda “G‘ofir”, “Fussilat”, “Shura”, “Zuxruf”, “Duxon”, “Josiya”, “Ahqof” kabi suralar shunday nomlangan. Havamim ssuralari (yoki Al-Havamim) — Qur’oni karimdagi birinchi oyati “Haa, Miim” (حم) harflari (hurufi muqatta’a) bilan boshlanuvchi, ketma-ket kelgan 7 ta suraga berilgan umumiy nomdir. Ular Qur’onning 40-surasidan 46-surasigacha bo‘lgan qismini tashkil etadi

"Qur'onning ipak bezagi" deb atash orqali ularning badiiy mukammalligini ta'kidlaydi. Ilmiy jihatdan qaraganda bu rivoyatlar Qur'onning uch asosiy funksiyasini ochib beradi:

– Qur'on inson qalbini tarbiyalaydi va uni ma'naviy kamolotga yetaklaydi. Har bir oyat insonning ichki dunyosini poklashga xizmat qiladi;

– Qur'on tilovati inson ruhiyatida osoyishtalik va ijobiy hissiyotlarni shakllantiradi. Bu esa shaxsning psixologik barqarorligini ta'minlaydi;

– Qur'onning badiiy va ma'naviy mukammalligi insonni tafakkur qilishga, go'zallikni anglashga va ilohiy hikmatlarni idrok etishga undaydi.

Abu Hafs Nasafiy kabi mufassirlarning tafsiriy yondashuvida ham aynan shu jihatlar alohida e'tibor markazida turadi. U Qur'on oyatlarini sharhlashda ularning faqat zohiriy ma'nosini emas, balki inson hayoti, axloqi va jamiyatdagi o'rnini ham tahlil qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda yuqoridagi rivoyatlar Nasafiy tafsir metodologiyasi bilan uyg'un bo'lib, Qur'onning inson kamoloti va jamiyat barqarorligidagi o'rnini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Ushbu rivoyatlar Qur'onni faqat diniy matn sifatida emas, balki insonni tarbiyalovchi, jamiyatni ma'naviy jihatdan barqaror qiluvchi va estetik tafakkurni rivojlantiruvchi ilohiy manba sifatida ko'rsatadi.

"Ular: "U bizga bergan va'dasini rost qilgan va bizni jannat yerlariga merosxo'r qilgan Allohga hamdlar bo'lsin. Endi undan xohlagan joyimizni olamiz" dedilar. Bas, amal qiluvchilarning ajri qanday ham yaxshi bo'ldi" ("Zumar" surasi, 74-oyat). Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2019:3-422*).*

Nasafiy tafsir an'anasida ushbu oyat jannat ahli tilidan aytilgan eng yuksak e'tirof va shukronaning ifodasi sifatida sharhlanadi. Bu yerda "Alloh va'dasini rost qildi" jumlasi iymon ahliga dunyoda berilgan barcha ilohiy va'dalarning oxiratda to'liq va mukammal tarzda ro'yobga chiqishini bildiradi. Nasafiy yondashuviga ko'ra "va'da" tushunchasi Qur'onda faqat oddiy so'z emas, balki ilohiy qonuniyatdir. Ya'ni Allohning va'dasi shubha va o'zgarishga duch kelmaydi, balki qat'iy haqiqat sifatida amalga oshadi. "Yerga merosxo'r qilindi" iborasi haqida mufassirlar jannat ne'matlarining abadiyligini ta'kidlaydilar. Nasafiy uslubida bu, insonning dunyoda qilgan amali natijasida unga berilgan mulk emas, balki ilohiy fazl sifatida berilgan abadiy egalikdir (Abu Hafs Umar ibn Muhammad an-Nasafiy, 2010:3-133).

"Xohlagan joyida joylashish" jumlasi jannatdagi erkinlik va ruhiy osoyishtalikning mukammalligini ifodalaydi. Bu erda hech qanday cheklov, xavf yoki tashvish mavjud emas. Inson o'z istagiga ko'ra jannat ne'matlaridan bahramand bo'ladi.

Imom Qushayriy bu oyatni tasavvufiy nuqtayi nazardan uch darajali ruhiy maqom bilan bog'laydi. Ya'ni Zolimlar darajasi - ular jannatga "sudrab olib boriladi". Bu ularning dunyodagi gunohlaridan poklanish bosqichidir. O'rtacha (muqtasid)lar - ular hurmat bilan yetaklanadi; bu ularning ibodat va gunoh o'rtasidagi muvozanatini bildiradi. Sabrli va yetuklar (sabiqiyun) - ular Allohga yaqinlashtirilib, izzat bilan kiradilar. Bu tasnif insonning ma'naviy kamoloti darajalarini ko'rsatib, jannatga kirish ham bir xil emasligini, balki amal va ixlosga qarab farqlanishini bildiradi.

Nasafiyga ko'ra, ushbu oyat insonni hayot davomida ezgu amallar qilishga, sabr-toqatli bo'lishga va Allohning va'dasiga qat'iy ishonishga undaydi. Chunki jannatga erishish faqatgina e'tiqod bilan emas, balki unga mos amaliy hayot tarzini shakllantirish bilan bog'liqdir. Oyat oxiridagi "Amal qiluvchilarning mukofoti naqadar go'zaldir" jumlasi inson kamoloti mehnat, taqvo va ezgu amallar orqali hosil bo'lishini ko'rsatadi. Bu g'oya jamiyatda mas'uliyat, halollik va yaxshilik tamoyillarining qaror topishiga xizmat qiladi. Nasafiy tafsirida bu oyat insonning ma'naviy yetukligi va oxirat saodatining o'zaro bog'liqligini yoritadi. Allomaning fikricha, inson o'z hayotini Qur'on ko'rsatmalariga muvofiq tashkil etsa, nafaqat shaxsiy komillikka erishadi, balki jamiyatda ham adolat va osoyishtalik muhitining shakllanishiga hissa qo'shadi.

"Va farishtalarni Arshni o'rab olib robbilariga hamd ila tasbeh aytayotgan holda ko'rursan. Ular orasida haq ila hukm qilindi va Olamlarning robbisiga hamdu sanolar bo'lsin" – deyildi" ("Zumar" surasi, 75-oyat).

Nasafiy tafsirida bu oyat qiyomat kunining eng ulug' manzaralaridan birini tasvirlaydi. "Farishtalar Arsh atrofida hozir bo'lishi" ularning mutlaq itoat, poklik va Allohga yaqinlik maqomida ekanini bildiradi. Arsh ilohiy hukm va qudrat markazi bo'lib, uning atrofida farishtalarning saf tortishi kosmik tartib va ilohiy boshqaruvning mukammalligini ifodalaydi. "Ular tasbeh aytadilar" jumlasi faqat til bilan zikr emas, balki butun mavjudotning Allohni ulug'lash holatini anglatadi. Nasafiy talqinida tasbeh bu mavjudlikning asl ma'nosi barcha mavjudot Allohning qudratini tan oladi. "Ular orasida haq bilan hukm qilinadi" jumlasi qiyomat kunidagi adolatning mutlaq ekanini bildiradi. Bu yerda hech qanday zulm, adolatsizlik yoki nohaqlik bo'lmaydi. Har bir jon o'z amali bilan yuzlashadi.

Qatoda rivoyat qilgan tafsirda Alloh taolo yaratishni ham hamd bilan boshlagani, hukm va hisob-kitobni ham hamd bilan yakunlagani ta'kidlanadi. Bu esa Qur'onda shukr va hamd tushunchalarining naqadar markaziy o'rin tutishini ko'rsatadi. Nasafiy tafsirida ham hamd va shukr inson komilligining muhim belgilaridan biri sifatida talqin qilinadi.

Mazkur oyatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Abu Hafs Nasafiy Qur'on oyatlaridan kelib chiqib inson kamolotining asosiy mezonlari sifatida iymon,

ezgu amal, sabr, shukr, adolat va taqvoni ko‘rsatadi. Uning talqinida jamiyat barqarorligi ham aynan shu qadriyatlar asosida ta’minlanadi. Insonlar o‘zaro adolatli munosabatda bo‘lsalar, yaxshilik va ezgulikni targ‘ib qilsalar hamda Allohning ko‘rsatmalariga amal qilsalar, jamiyatda tinchlik, hamjihatlik va ma’naviy yuksalish qaror topadi. Shu jihatdan Nasafiy tafsiri bugungi kunda ham inson tarbiyasi va jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ilmiy-manaviy manba hisoblanadi.

Nasafiy boshqa mufassirlar bu kabi “huruf muqattaot”ni Qur’onning ilohiy sirlaridan biri deb hisoblaydilar. Ularning asl ma’nosi inson idrokidan tashqarida bo‘lib, bu Qur’onning oddiy inson so‘zi emasligini bildiradi. Ba’zi ulamolar bu harflarni Allohning ismlariga ishora deb izohlaganlar. Boshqalar esa ularni Qur’onning mo‘‘jizaviy til tizimi sifatida talqin qilganlar. Nasafiy yo‘nalishida esa asosiy urg‘u shundaki bu harflar inson aqlini to‘xtatadi va uni vahiy oldida taslim bo‘lishga chaqiradi.

“Bu Kitob qudratli va bilimli Alloh tomonidan nozil qilingan”(“G‘ofir” surasi, 2-oyat).

Nasafiy tafsirida bu oyat Qur’onning manbasi mutlaq ilohiy ekanini qat’iy tasdiqlaydi. “Al-Aziz” sifati Allohning mag‘lub bo‘lmas qudratini, “Al-Alim” esa cheksiz ilm sohibi ekanini bildiradi. Demak, Qur’on insoniyat tajribasi yoki tarixiy mahsul emas, balki mutlaq ilm va qudrat egasi tomonidan yuborilgan vahiydir. Bu esa uni o‘zgarmas, abadiy va universal kitob sifatida belgilaydi. Bu oyatning yana bir muhim jihati u Rasulullоh (s.a.v)ga tasalli beradi va mushriklarga ogohlantirish bo‘ladi: bu kitobni inkor etish - ilohiy haqiqatni inkor etishdir (Abu Hafs Umar ibn Muhammad an-Nasafiy, 2010:192)

“Axir ular o‘zlaridan avval o‘tganlarning oqibati qanday bo‘lganiga nazar solmaydilarmi?” (“G‘ofir” surasi, 21-oyat) (Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2019: 3-322*).*

Abu Hafs Nasafiy ushbu oyat tafsirida insonlarni tarixdan saboq olishga chaqiradi. Allomaning ta’kidlashicha, Makka mushriklari o‘z safarlari davomida Od, Samud va Lut qavmlarining xarobalari yonidan o‘tib turar edilar. Ular bu xalqlarning boshiga tushgan halokatni nafaqat rivoyatlar orqali, balki o‘z ko‘zlari bilan ham kuzatish imkoniga ega bo‘lganlar. Shunday ekan, avvalgi ummatlarning boshiga tushgan musibatlar keyingi avlodlar uchun ibrat va ogohlantirish vazifasini bajaradi.

Qur’onda tarixiy voqealarning zikr qilinishi shunchaki o‘tmish haqida ma’lumot berish uchun emas, balki inson qalbida tafakkur, hushyorlik va mas’uliyat hissini uyg‘otish uchundir. Chunki Allohning qonunlari barcha zamonlarda bir xil bo‘lib, haqni inkor etish, zulm va isyonning oqibati oxir-oqibat halokat bilan yakun topadi. Shu sababli mo‘min kishi tarixiy voqealarga oddiy hikoya sifatida emas, balki o‘z hayotiga tegishli saboq sifatida qarashi lozim.

“Ular bulardan ko‘ra kuch-quvvat jihatidan ham kuchliroq edilar” (“G‘ofir” surasi, 21-oyat) (Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2019: 323*).*

Nasafiy ushbu oyatni sharhlar ekan, avvalgi qavmlar jismoniy qudrat, harbiy salohiyat va moddiy imkoniyatlar jihatidan Quraysh mushriklaridan ancha ustun bo‘lganini ta’kidlaydi. Od qavmi o‘zining ulkan kuchi bilan, Samud qavmi esa mustahkam inshootlari va taraqqiyoti bilan mashhur edi. Shunga qaramay ular Allohning azobi oldida ojiz qoldilar. Bu tafsir insoniyat uchun muhim bir haqiqatni ochib beradi. Moddiy kuch va dunyoviy qudrat insonni ilohiy jazodan qutqara olmaydi. Agar kuch adolat va itoat bilan birlashmasa, u insonni najotga emas, balki halokatga olib boradi. Nasafiy shu orqali haqiqiy qudrat Allohga bo‘ysunish va Uning amrlariga amal qilishda ekanini uqtiradi.

Allomaning ushbu talqini bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Texnologik va iqtisodiy taraqqiyotga erishgan jamiyatlar ham ma’naviy qadriyatlardan uzoqlashsa, turli inqiroz va tanazzullarga duch kelishi mumkin. Shuning uchun Qur’on insonni faqat kuch bilan emas, balki taqvo va axloq bilan ham kamol topishga chaqiradi.

“Yer yuzida ulardan ko‘ra ko‘proq asoratlar (imoratlar va obidalar) qoldirgan edilar” (“G‘ofir” surasi, 21-oyat). Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2019:3-323*)*

Nasafiy mazkur jumlani bu yerda avvalgi qavmlarning ulkan binolar, qal’alar, tog‘larni teshib qurilgan uylar va boshqa me’moriy yodgorliklari nazarda tutilganini aytadi. Ular yer yuzini obod qilishda va bunyodkorlikda keyingi avlodlardan ancha ilgarilab ketgan edilar. Biroq Qur’on bu obidalarni maqtash uchun emas, balki ulardan ibrat olish uchun eslatadi. Chunki inson qanchalik buyuk inshootlar qurmasin, agar e’tiqod va axloqdan uzoqlashsa, uning sivilizatsiyasi ham barqaror qolmaydi. Nasafiy bu orqali dunyoviy taraqqiyot bilan ma’naviy taraqqiyot o‘rtasidagi muvozanat zarurligini ko‘rsatadi.

Alloma nazarida insonning haqiqiy merosi faqat moddiy binolar emas, balki ezgu amallar, adolat va solihlikdir. Moddiy obidalar vaqt o‘tishi bilan vayron bo‘lishi mumkin, ammo ezgu amallar inson nomini abadiylashtiradi.

“Bas, Alloh ularni gunohlari sababli jazoladi” (“G‘ofir” surasi, 21-oyat) (Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2019:3-323*).*

Nasafiy ushbu oyat tafsirida qavmlarning halokati tasodifiy hodisa emasligini, balki ularning kufr, zulm va gunohlari natijasi ekanini bayon qiladi (Abu Hafs Umar ibn Muhammad an-Nasafiy, 2019:211). Alloh taolo hech kimga zulm qilmaydi, balki insonlar o‘z qilmishlari sababli jazoga duchor bo‘ladilar. Bu oyatda ilohiy

adolat tamoyili yaqqol namoyon bo‘ladi. Har qanday jazo oldidan payg‘ambarlar yuborilgan, hujjat va dalillar keltirilgan. Shundan keyin ham haqiqatni rad etgan qavmlar o‘z qilmishlarining oqibatiga duch kelganlar. Nasafiy inson hayotidagi musibat va sinovlarga ham shu nuqtai nazardan qarash kerakligini uqtiradi. Mo‘min kishi har qanday voqeadan saboq olib, o‘z amallarini tahlil qilishi va tavba-istig‘for bilan Allohga qaytishi lozim.

“Ular uchun Allohning azobidan saqlab qoluvchi hech qanday himoyachi bo‘lmadi” (“G‘ofir” surasi, 21-oyat) (Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2019:3-331*)*

Imom Nasafiy Allohning hukmi kelganida hech qanday kuch, boylik, qo‘shin yoki hokimiyat insonni qutqara olmasligini ta’kidlaydi (Sa’duddin Taftazoniy, 2020:134). Avvalgi qavmlar ham o‘zlarining kuch-qudratiga tayanib yashagan edilar, ammo ilohiy azob kelganida ularni himoya qiladigan biror vosita topilmadi. Bu oyat insonni kibr va g‘ururdan qaytaradi. Chunki ko‘pincha odamlar boyligi, mansabi yoki qudratiga suyanib, o‘zini xavfsiz his qiladi. Qur’on esa haqiqiy himoya faqat Allohning panohida ekanini eslatadi.

Abu Hafs Nasafiy tafsirida ushbu oyatlar majmuasi insonni tarixdan saboq olishga, dunyoviy qudratga aldanib qolmaslikka, gunoh va zulmdan saqlanishga hamda Allohning adolati va qudrati oldida kamtarlik bilan yashashga da’vat etadi. Alloma nazarida avvalgi ummatlarning qissalari faqat tarixiy ma’lumot emas, balki har bir davr va har bir inson uchun ma’naviy tarbiya manbai hisoblanadi. Bu talqin bugungi kunda ham jamiyat taraqqiyoti, axloqiy mas’uliyat va ma’naviy kamolot masalalarida muhim ahamiyat kasb etadi.

TAHLIL

Abu Hafs Nasafiyning ilmiy merosi hamda uning Qur’on tafsiridagi metodologik yondashuvi misolida inson kamoloti va jamiyat barqarorligini ta’minlovchi asosiy omillar tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy e’tibori Nasafiy tafsirida Qur’oni karim oyatlarining nafaqat aqidaviy va fiqhiy jihatlari, balki ularning ma’naviy-tarbiyaviy, axloqiy va ijtimoiy mazmuniga qaratilgan.

Abu Hafs Nasafiy merosining umumiy tavsifi berilar ekan, uning “Al-Qand fi zikri ulamoi Samarqand”, “Talabat at-talaba fi al-istilahat al-fiqhiyya” va “At-Taysir fit-tafsir” kabi asarlari Movarounnahr ilmiy muhitining shakllanishi va rivojlanishida muhim o‘rin tutgani ko‘rsatiladi. Ayniqsa, “At-Taysir fit-tafsir” asari orqali Nasafiyning Qur’on oyatlarini inson tarbiyasi, jamiyat hayoti va ma’naviy yetuklik bilan bog‘liq holda sharhlashga intilgani yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu esa uning tafsirchilik faoliyati faqat matnni izohlash bilan cheklanmaganini, balki Qur’onning amaliy hayotdagi ahamiyatini ochib berishga qaratilganini ko‘rsatadi.

“Havamim” suralariga oid rivoyatlar tahlili orqali Qur’onning inson ruhiyatiga ta’siri masalasi yoritilgan. Nasafiy tafsir metodologiyasida Qur’on inson qalbini poklovchi, uni ma’naviy yuksalishga olib chiquvchi ilohiy manba sifatida talqin qilinadi. Rivoyatlarda “Havamim” suralarining “jannat bog‘lari”, “Qur’onning mevasi” yoki “ipak bezagi” kabi tashbehlar bilan ifodalanishi Qur’onning nafaqat diniy, balki estetik va ruhiy tarbiya vositasi ekanini ko‘rsatadi. Ushbu yondashuv Qur’onning shaxs kamolotiga ta’sirini psixologik va axloqiy jihatdan ham tushuntirish imkonini beradi (Sa’duddin Taftazoniy, 2020:2-322).

“Zumar” surasining 74-oyati tafsirida Nasafiy inson hayotining maqsadi va oxirat saodatiga erishish yo‘lini ochib beradi. Oyatda jannat ahli tomonidan aytilgan shukronalik kalimalari Allohning va’dasi haq ekanini va insonning ezgu amallari behuda ketmasligini ifodalaydi. Nasafiy ushbu oyat orqali sabr, iymon va solih amal insonni oliy mukofotga eltuvchi asosiy vositalar ekanini ta’kidlaydi. Ayniqsa, jannatning “meros” sifatida berilishi insonning barcha ne’matlarga aslida Allohning fazli bilan erishishini anglatadi. Bu esa mo‘min kishida tavozu’, shukr va mas’uliyat hissini shakllantiradi.

Imom Qushayriyning ushbu oyatga bergan tasavvufiy sharhi keltirilishi tadqiqotning ilmiy qiymatini oshiradi. Unga ko‘ra insonlarning jannatga kirish darajalari ularning dunyodagi ma’naviy maqomlari bilan bog‘liq. Bu yondashuv inson kamolotining darajama-daraja rivojlanishini ko‘rsatadi hamda Qur’onning ruhiy tarbiya tizimini chuqurroq anglashga xizmat qiladi (Abu Hafs Umar an-Nasafiy, 1999:233).

“Zumar” surasining 75-oyati tahlilida esa ilohiy adolat va kosmik tartib masalasi markaziy o‘rin egallaydi. Farishtalarning Arsh atrofida tasbeh aytib turishi butun mavjudotning Allohga bo‘ysunishini ifodalovchi ramziy manzara sifatida talqin qilinadi. Nasafiy nazarida tasbeh faqat til bilan aytiladigan zikr emas, balki borliqning ilohiy tartibga bo‘ysunishidir. Oyatda qiyomat kuni barcha insonlar o‘rtasida haq bilan hukm qilinishi ta’kidlanishi esa jamiyat hayotidagi adolat tamoyilining ilohiy manbaga ega ekanini ko‘rsatadi. Demak, adolat nafaqat huquqiy, balki ma’naviy va diniy qadriyat sifatida talqin qilinadi (Sa’duddin Taftazoniy, 2020: 310).

Matnda “G‘ofir” surasi oyatlarining sharhi orqali Qur’onning ilohiy manbaga ega ekani, tarixiy qissalar esa insoniyat uchun ibrat manbai ekani ko‘rsatib beriladi. Xususan, “Bu Kitob qudratli va bilimli Alloh tomonidan nozil qilingan” mazmunidagi oyat tafsirida Qur’onning mutlaq haqiqat manbai ekaniga urg‘u beriladi. Nasafiyga ko‘ra, Qur’on inson tafakkuri mahsuli emas, balki cheksiz ilm va qudrat sohibi bo‘lgan

Allohning kalomidir. Shu sababli u barcha zamon va makonlar uchun hidoyat manbai hisoblanadi.

Umuman olganda, Abu Hafs Nasafiy tafsirining asosiy maqsadi – Qur'on oyatlarining ma'naviy-tarbiyaviy mohiyatini ochib berishdan iborat ekanini ko'rsatadi. Alloma iymon, shukr, sabr, adolat, taqvo, tavozu' va mas'uliyat kabi fazilatlarni inson kamolotining asosiy mezonlari sifatida talqin qiladi. Shu bilan birga, jamiyat barqarorligi ham aynan ushbu qadriyatlarning qaror topishi bilan bog'liqligini asoslaydi. Natijada Nasafiy tafsiri nafaqat diniy-ilmiy meros, balki bugungi kunda ham inson tarbiyasi, ma'naviy rivojlanish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim manba sifatida namoyon bo'ladi.

Abu Hafs Nasafiy tafsiriy merosi Qur'onni faqat aqidaviy yoki huquqiy manba sifatida emas, balki insonning ichki kamoloti va jamiyat barqarorligini shakllantiruvchi ma'naviy tizim sifatida talqin qilishga asoslanadi. Tahlil qilingan oyatlar va ularning Nasafiy yondashuvidagi sharhlari shuni ko'rsatadiki, Qur'on matni inson shaxsiyatini tarbiyalashda kompleks – ya'ni ruhiy, axloqiy va ijtimoiy funksiyalarni bajaradi.

Avvalo Nasafiy tafsirida Qur'on oyatlari insonning individual kamolotiga yo'naltirilgan asosiy tamoyillar bilan izohlanadi. Iymon, amal, sabr, shukr, taqvo va adolat kabi tushunchalar uning talqinida shunchaki diniy buyruqlar emas, balki insonni ichki jihatdan shakllantiruvchi psixologik va axloqiy mezonlar sifatida namoyon bo'ladi. Bu yondashuv Qur'onni "hayotiy tarbiya modeli" sifatida ko'rsatadi. Masalan, jannat haqidagi oyatlarning sharhida Nasafiy insonni faqat oxirat mukofoti bilan emas, balki dunyoviy hayotdagi mas'uliyatli amallar orqali kamolotga erishishga undaydi.

Ikkinchi muhim jihat shundaki Nasafiy tafsirida Qur'onning jamiyat barqarorligiga ta'siri bevosita ijtimoiy axloq bilan bog'lanadi. Adolat, halollik va zulmdan uzoqlashish g'oyalari jamiyatdagi tartib va osoyishtalikning asosiy sharti sifatida talqin qilinadi. Ayniqsa, "G'ofir" surasidagi tarixiy qavmlar misoli orqali u jamiyatlarning inqirozi ma'naviy tanazzul bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Bu yondashuv Qur'onni tarixiy saboq beruvchi manba sifatida emas, balki ijtimoiy qonuniyatlarni ochib beruvchi ilohiy mezon sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Nasafiy metodologiyasida yana bir muhim jihat – Qur'onning estetik va ruhiy ta'sirini alohida ajratib ko'rsatishdir. U Qur'on tilovatining inson ruhiyatiga tinchlik, xotirjamlik va ma'naviy poklanish olib kelishini ta'kidlaydi. Bu yondashuv zamonaviy psixologik qarashlarga ham yaqin bo'lib, diniy matnning inson ruhiy holatiga ta'sirini ilmiy asosda tushuntirish imkonini beradi. Qur'onning badiiy go'zalligi va ma'naviy mazmuni bir butun tizim sifatida talqin qilinadi.

Shuningdek, Nasafiy tafsirida tarixiy yondashuv ham muhim o'rin egallaydi. Avvalgi qavmlar haqidagi oyatlar insoniyat uchun takrorlanuvchi ijtimoiy qonuniyatni ifodalaydi: kuch, boylik yoki texnologik taraqqiyot ma'naviy asosdan ajralganda, u barqarorlikni ta'minlay olmaydi. Bu fikr bugungi globallashuv sharoitida ham dolzarbligini saqlab qoladi, chunki jamiyatning faqat moddiy taraqqiyotga tayanishi yetarli emasligini ko'rsatadi.

Nasafiy tafsirining yana bir muhim xususiyati – Qur'onni mutlaq ilohiy manba sifatida talqin qilishidir. "Al-Aziz" va "Al-Alim" sifatlari orqali Qur'onning insoniy tajriba mahsuli emasligi, balki cheksiz ilm va qudratga ega Zot tomonidan nozil qilingani ta'kidlanadi. Bu esa Qur'on matnining o'zgarmas va universal xarakterini asoslaydi hamda uning har bir davr uchun dolzarbligini mustahkamlaydi.

NATIJA

Mazkur tadqiqot natijalari Abu Hafs Nasafiy tafsiriy merosining Qur'onni inson kamoloti va jamiyat barqarorligi nuqtayi nazaridan talqin qilishda o'ziga xos tizimli yondashuvga ega ekanini ko'rsatdi. Tahlil qilingan oyatlar va ularning mufassir tomonidan berilgan sharhlari asosida quyidagi ilmiy natijalarga kelindi.

Abu Hafs Nasafiy tafsirida Qur'on insonni shakllantiruvchi asosiy ma'naviy manba sifatida qaraladi. Unda inson kamoloti faqat ibodat bilan cheklanmay, balki iymon, amal, sabr, shukr, adolat va taqvo kabi axloqiy-ruhiy kategoriyalar orqali bosqichma-bosqich rivojlanadigan jarayon sifatida izohlanadi. Bu yondashuv Qur'onni shaxs tarbiyasining kompleks modeli sifatida ko'rsatadi.

Nasafiy tafsirida jamiyat barqarorligi masalasi bevosita inson axloqi va ma'naviy holati bilan bog'lanadi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, adolatning yo'qolishi, zulmning kuchayishi va ma'naviy qadriyatlardan uzoqlashish jamiyat tanazzulining asosiy sababi sifatida talqin qilinadi. Aksincha, halollik, adolat va iymoniy mas'uliyat jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlovchi asosiy omillardir.

Qur'onning tarixiy qavmlar haqidagi oyatlari Nasafiy talqinida faqat tarixiy hikoya emas, balki ijtimoiy qonuniyatlarni ochib beruvchi ilohiy tamoyil sifatida sharhlanadi. Bu orqali u har bir davr uchun amal qiladigan umumiy ijtimoiy-siyosiy qonuniyatlar mavjudligini asoslab beradi. Qur'on tilovati va uning estetik-badiiy jihatlari inson ruhiyatiga chuqur ta'sir ko'rsatishi Nasafiy tafsirida alohida o'rin egallaydi. Qur'on inson qalbida osoyishtalik, ruhiy poklanish va ma'naviy yuksalishni shakllantiruvchi omil sifatida talqin qilinadi.

Nasafiy tafsiriy yondashuvi Qur'onni ilohiy, o'zgarmas va universal manba sifatida mustahkamlaydi.

U "Al-Aziz" va "Al-Alim" kabi sifatlar orqali Qur'onning insoniy ijod emas, balki mutlaq ilohiy ilm mahsuli ekanini asoslaydi. Umuman olganda tadqiqot natijalari Abu Hafs Nasafiy tafsirining Qur'onni inson tarbiyasi, jamiyat barqarorligi va ma'naviy yuksalish bilan uzviy bog'liq holda izohlaydigan mukammal ilmiy tizim ekanini tasdiqlaydi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot Abu Hafs Nasafiy tafsirining Qur'onni talqin qilishdagi ilmiy-uslubiy yondashuvini hamda uning inson kamoloti va jamiyat barqarorligiga ta'sirini o'rganishga bag'ishlandi. Olib borilgan tahlillar asosida quyidagi yakuniy xulosalarga kelindi. Avvalo, Abu Hafs Nasafiy tafsiri Qur'onni faqat diniy hukmlar majmuasi sifatida emas, balki inson hayotini barcha jihatdan tartibga soluvchi ma'naviy-konseptual tizim sifatida talqin qiladi. Ushbu yondashuv Qur'onning shaxs tarbiyasidagi o'rnini yanada kengaytiradi va uni hayotiy dastur sifatida ko'rsatadi.

Inson kamoloti masalasi Nasafiy tafsirida bosqichma-bosqich rivojlanadigan jarayon sifatida izohlanadi. Iymonning mustahkamligi, ezgu amallar, sabr va shukr kabi fazilatlar insonni nafaqat diniy, balki axloqiy va ijtimoiy jihatdan ham yetuk shaxsga aylantiradi. Jamiyat barqarorligi Qur'on ta'limotlariga amal qilish darajasi bilan bevosita bog'liq ekani aniqlanadi. Adolat va halollik ustuvor bo'lgan jamiyatlarda tinchlik va barqarorlik hukm suradi, aksincha zulm va ma'naviy inqiroz kuchaygan jamiyatlarda esa tanazzul yuz beradi.

Nasafiy tafsirida Qur'onning ruhiy va estetik ta'siri ham muhim o'rin egallaydi. Qur'on inson qalbini poklaydi, ruhiy xotirjamlik beradi va uning tafakkurini yuksaltiradi, bu esa shaxsning ichki barqarorligini mustahkamlaydi.

Yakuniy xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, Abu Hafs Nasafiy tafsiri nafaqat o'z davri uchun, balki bugungi zamonaviy jamiyat uchun ham dolzarb bo'lgan ilmiy-ma'naviy manbadir. U Qur'onni inson tarbiyasi, jamiyat barqarorligi va ma'naviy yuksalishning asosiy manbai sifatida ko'rsatib, islom tafsir maktabida muhim o'rin egallaydi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR:

1. Abu Hafs Umar an-Nasafiy. (1999) Al-Qand fi zikri ulamoi Samarqand. – Tehron: Oyinai Meros.
2. Abu Hafs Umar ibn Muhammad an-Nasafiy. (2010) Manzumah fi al-Xilafiyyat. – Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya.
3. Abu Hafs Umar ibn Muhammad an-Nasafiy. (2011) Tafsir al-Quron al-Karim (qo'lyozma asosidagi tadqiqiy nashr). – Istanbul: Maktabat al-Irshod.
4. Abu Hafs Umar ibn Muhammad an-Nasafiy. (2015) Al-Favoid al-Muxtor. – Bayrut: Dar Ibn Hazm.
5. Abu Hafs Umar ibn Muhammad an-Nasafiy. (2018) Sharh al-Jomi al-Kabir. – Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya.
6. Abu Hafs Umar ibn Muhammad an-Nasafiy. (2019) At-Taysir fi at-Tafsir. – Bayrut: Dar al-Lubab.
7. Abu Hafs Umar ibn Muhammad an-Nasafiy. (2019) At-Taysir fi at-Tafsir. 15 jild. – Istanbul: Dar al-Lubab.
8. Abu Hafs Umar ibn Muhammad an-Nasafiy. (2020) Al-Aqoid an-Nasafiyya. – Istanbul: Dar as-Siraj.
9. Abu Hafs Umar ibn Muhammad an-Nasafiy. (2020) Hasr al-Masail va Qasr ad-Dalail. – Bayrut: Dar al-Fajr.
10. Muratov A. (2021) Abu Hafs Nasafiy "At-Taysir fi at-Tafsir" asarining manbashunoslik tadqiqi: Islomshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.
11. Rahimjonov D. (2010) Abu Hafs Nasafiy. – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi.
12. Sa'duddin Taftazoniy. (2020) Sharh al-Aqoid an-Nasafiyya / Muhammad Adnon Darvesh tahqiqi. – Istanbul: Dar as-Siraj.
13. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. (2019) Tafsiri Hilol. – Toshkent: Hilol nashriyoti.

REFERENCES

1. Abu Hafs Umar al-Nasafiy. (1999). Al-Qand fi dhikri ulama'i Samarqand. Tehran: Oyinai Meros.
2. Abu Hafs Umar ibn Muhammad al-Nasafiy. (2010). Manzumah fi al-Khilafiyyat. Beirut: Dar al-Kutub al-'Ilmiyyah.
3. Abu Hafs Umar ibn Muhammad al-Nasafiy. (2011). Tafsir al-Qur'an al-Karim (Critical edition based on the manuscript). Istanbul: Maktabat al-Irshad.
4. Abu Hafs Umar ibn Muhammad al-Nasafiy. (2015). Al-Fawa'id al-Mukhtar. Beirut: Dar Ibn Hazm.
5. Abu Hafs Umar ibn Muhammad al-Nasafiy. (2018). Sharh al-Jami' al-Kabir. Beirut: Dar al-Kutub al-'Ilmiyyah.
6. Abu Hafs Umar ibn Muhammad al-Nasafiy. (2019). Al-Taysir fi al-Tafsir. Beirut: Dar al-Lubab.
7. Abu Hafs Umar ibn Muhammad al-Nasafiy. (2019). Al-Taysir fi al-Tafsir (15 vols.). Istanbul: Dar al-Lubab.
8. Abu Hafs Umar ibn Muhammad al-Nasafiy. (2020). Al-'Aqa'id al-Nasafiyyah. Istanbul: Dar al-Siraj.
9. Abu Hafs Umar ibn Muhammad al-Nasafiy. (2020). Hasr al-Masa'il wa Qasr al-Dala'il. Beirut: Dar al-Fajr.
10. Muratov, A. (2021). Abu Hafs Nasafiy "Al-Taysir fi al-Tafsir" asarining manbashunoslik tadqiqi [Source-critical study of Abu Hafs Nasafiy's "Al-Taysir fi al-Tafsir"]: Dissertation for the degree of Doctor of Philosophy (PhD) in Islamic Studies. Tashkent: International Islamic Academy of Uzbekistan.
11. Rahimjonov, D. (2010). Abu Hafs Nasafiy. Tashkent: Tashkent Islamic University Publishing and Printing Association.
12. Sa'd al-Din al-Taftazani. (2020). Sharh al-'Aqa'id al-Nasafiyyah (Critical ed. by Muhammad Adnan Darwish). Istanbul: Dar al-Siraj.
13. Shaykh Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf. (2019). Tafsiri Hilal. Tashkent: Hilol Publishing House.